

BOLALARDA NUTQINI RIVOJLANTIRISH DOLZARBLIGI VA AHAMIYATI

Toshboyeva Musallom Shamshidinovna

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor haqida fikr bildirilgan. Bolalarda nutqini o'stirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri ekanligi aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: islohotlar, strategiya, maktabgacha ta'lim, nutq, bolalarning nutqini o'stirish.

Аннотация: В статье рассматривается внимание, уделяемое развитию дошкольного образования в нашей стране. Говорят, что развитие речи детей является одной из важнейших задач сегодня.

Ключевые слова: реформы, стратегия, дошкольное образование, речь, развитие речи детей.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan yoshlarimizni har tomonlama barkamol, bilimli, zukko mutaxassislar sifatida hayotga kirib borishiga zamin hozirlamoqda.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, yoshlarimizni har taraflama yuqori darajaga erishishida maktabgacha ta'lim muassasalarining alohida o'rni bor. Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: “yagona maqsadimiz – maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni Uchinchi Renessansning to'rt uzviy xalqasiga, bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa Yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuniga aylantirishdan iborat”¹.

Shunday ekan, bolalarimizning ongu-shuurida maktabgacha ta'lim maskanlaridayoq mustahkam poydevor yaratishga alohida e'tibor qaratishimiz zarur. Zero, “yoshlikda olingan bilim toshga o'yilgan naqsh kabidir”.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining IV bandi “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlanib unda quyidagi maqsadlar berilgan: **38-maqsad: Maktabgacha ta'limdagi qamrov darajasini hozirgi 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.** 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan

¹ Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: “O'zbekiston”, 2021, 57-b.

qamrab olish darajasini 90 foizga, 2024/2025-o‘quv yili yakuniga qadar 100 foizga yetkazish.

Maktabgacha ta’lim tizimiga xususiy sektor mablag‘larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish.

39-maqсад: Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish. Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish.

2022-2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish².

Shu bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining 1-bo‘limi **“Har bir insonga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish”** deb nomlanib, uning 1.1. bandi **“Ta’lim tizimi islohotlari”** ga bag‘ishlangan. Unda maktabgacha ta’lim tizimi haqida shunday deyilgan: **“Maktabgacha ta’lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish hamda bolalarning to‘liq qamrovini ta’minlash. Bolalarni maktabgacha ta’lim va tayyorlov guruhlar bilan to‘liq qamrab olish. Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarini 100 foiz kompyuter sinfi bilan ta’minlash orqali tarbiyalanuvchilarda boshlang‘ich kompyuter savodxonligi ko‘nikmalarini shakllantirish. 100 foiz maktabgacha ta’lim tashkilotlarini toza ichimlik suv va zamonaviy sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta’minlash”**³.

Hozirgi kunda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining nutqini o‘stirish nioyatda dolzarb ahamiyatga ega. Nutq inson hayotida nihaytada muhim ahamiyatga ega vositalardan biri hisoblanadi. Nutq – inson tomonidan ijtimoiy-tarixiy tajribani o‘zlashtirish, avlodlarga uzatish yoki kommunikatsiya o‘rnatish, o‘z shaxsiy harakatlarini rejalashtirish va amalga oshirish maqsadida tildan foydalanish jarayoni⁴.

Agarda til aloqa vositasi bo‘lsa, nutq esa aynan o‘sha aloqa jarayonlarining amalga oshirishdir.

Qadimdan insonlar nutq masalasiga alohida e’tibor qaratib kelishgan. Ayniqsa, yuqori davlat lavozimidagi shaxslar, faylasuflar, sarkardalar, davlat rahbarlarining nutqlari boshqalardan ajralib turgan. Shu sababli ham qadimdan pedagoglar bolalarning nutqini o‘stirishga, omma oldida chiroyli nutq so‘zlay olish qobiliyatini rivojlantirishga uringanlar. Notiqlik alohida fan sifatida rivojlangan.

² 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>

³ “O‘zbekiston - 2030” strategiyasi to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>

⁴ Falsafa: qomusiy lug‘at. Tuzuvchi va mas‘ul muharrir Q.Nazarov. –T. ”Sharq”, 307-b.

Bugungi kunga kelib bolalarning nutqini maktabgacha yoshdan boshlab rivojlantirish masalasi kun tartibiga qo'yilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, ma'lum bir yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi bir-biridan farq qilishi mumkin. Maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, ta'limning keyingi bosqichiga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otib, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. 6-7 yoshgacha bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi bevosita davlat va nodavlat bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi – bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash, bolani sog'lom, rivojlangan, mustaqil shaxs bo'lib shakllantirish qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, tizimli ta'limga bo'lgan ishtiyoqini tarbiyalashdir. Shularni hisobga olib, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 3955-sonli qarori hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"⁶ tasdiqlandi.

Ushbu normativ hujjatlarida maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit uzluksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, bolalarning sifatli maktabgacha ta'lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash, mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'limni boshqarish tizimini takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini moliyalashtirish shaffofligi va samaradorligini ta'minlash, maktabgacha ta'lim tizimiga maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash, malakasini oshirish, tanlab olish va rivojlantirishga mutlaqo yangi yondashuvlarni joriy etish, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning sog'lom va balanslashtirilgan ovqatlanishini, sifatli tibbiy parvarishini ta'minlash kabi masalalar o'z ifodasini topgan.

Mamlakatimizni olib borayotgan mazkur siyosati maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan tarbiyachi-pedagoglardan g'oyat katta ma'suliyat hamda o'qitishning yangi texnologiyalaridan keng foydalanishni talab etadi. Shularni hisobga olib, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola har tomonlama maktab ta'limga tayyorlash, ular orasida bola nutqini rivojlantirish masalasi eng dolzarb masalalardan biridir.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-sonli [qarori](https://lex.uz/docs/-3923110). <https://lex.uz/docs/-3923110>

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son [qarori](https://lex.uz/ru/docs/-4327235). <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

Shu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarga o'qitilayotgan "Nutq o'stirish metodikasi" fani pedagogik fan sifatida maktabgacha ta'limda bolalar nutqini o'stirishni puxta egallagan mutaxassis tayyorlashda buyurtmachi sifatida, ilmiy izlanishlar asosida yaratilgan – "Ilk qadam" tayanch dasturini o'quv jarayoniga joriy etish, nutq o'stirish metodikasi bo'yicha bilim va malakalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatdan mutanosibligini ta'minlaydi, nutq o'stirish usullarini ishlab beradi. Uni takomillashtirish, eng qulay usulni qo'llash orqali bolalarga ona tilini amaliy o'rgatish, nutqda til birliklaridan foydalanish, o'zaro nutqiy muloqot munosabatida ona tilida fikrni to'g'ri, ifodalay olish, tengdoshlari nutqini tinglab tushunish nutqda til birliklarini ajrata bilish (tovush, so'z) nutq me'yorlarini ishiga mos holda o'rganib borish, unga amal qilish kabi faoliyatini shakllantiradi. Demak, nutq o'stirish metodikasi fani maktabgacha ta'limda nutq o'stirish vazifasini amalga oshiradi, bolalarda ifodali, aniq, lo'nda va obrazli so'zlashishni shakllantirish orqali ona tilini amaliy o'rgatadi, bolalarga ta'lim beradi.

"Nutq o'stirish metodikasi" fani maktabgacha ta'limda bolalarni og'zaki nutqini o'stirish, tengdoshlari va kattalar bilan nutqiy muomala malakalarini shakllantirish orqali nutqda so'zdan to'g'ri va o'rinli foydalanish, ya'ni nutq va xulq egasi bo'lish kabi ma'naviy axloqiy sifatlarni, so'zlash odobini egallashni shakllantiradi. Nutq o'stirish metodikasi pedagogik fan sifatida rivojlantiruvchi vazifani bajaradi. Ya'ni bolalar nutqini o'stirish orqali ularning nutq a'zolarini anatomik-gimnastik mashq qildirish orqali nutqning ravon tushunarli bo'lishini ta'minlaydi: bolalar tafakkuri, aqliy faoliyatini rivojlantiradi, ularda nutq odobi, ma'naviy barkamollikni shakllantiradi. Chunki yaxshi rivojlangan nutq tushunarli ta'sirchan bo'ladi, bola o'z nutqini tuzatib boradi.

Bolalar nutqini rivojlantirishning bir necha oddiy usullarini mavjud bo'lib, ulardan har birimiz keng foydalanishimiz mumkin. Jumladan:

Bola bilan kattalardek gaplashish lozim. Nutqimiz oson va to'g'ri, kattalarcha bo'lishi lozim. Masalan: "bi-bi"ning o'rniga – "mashina", "nyam-nyam"ning o'rniga "yeyish, ovqatlanish" va hokazo. Shunda bola birdan to'liq so'zlarni ayta boshlaydi va keyin uni kattalar tilida gaplashishga qaytadan o'rgatishga to'g'ri kelmaydi.

Gapirishni o'rganishga kitoblar, qo'shiqlar va she'rlarni jalb qilish kerak. Bolalar adabiyoti, musiqali asarlar, xalq og'zaki ijodi, she'rlar va boshqalar bolaning nutqini o'stirishda yaxshi yordamchi bo'ladi.

Bolani kiyintirayotganda, cho'miltirish yoki massaj qilish vaqtida bu harakatlarni hikoyalar yoki she'rlar bilan to'ldirish mumkin.

Bosqichma-bosqich uning so'z boyligi bir necha so'zlardan iborat bo'ladi. Shunda kitoblarni ham jalb qilish mumkin.

Bola uchun oddiy ertaklar o'qib berish. Sizning o'qiganlaringizni eshitish mobaynida bola nutq tuzilishini qabul qila boshlaydi, yangi so'zlarni va ayniqsa ularni talaffuz qilish qoidalarini o'rganadi.

Bolalar nutqini o'stirishga bolalar qo'shiqlarini ham qo'shish mumkin. Ularni bolaga qo'yib berish va u bilan birga raqsga tushish ham mumkin.

Bunday ovunchoqlar vestibulyar apparatning rivojlanishiga yordam berishdan tashqari bolaning nutqini ham kuchaytiradi.

Bolaning o'yinchoqlari o'rtasida ko'rinishlar ijro eting.

Agar bolaning o'yinchog'i sizning qo'lingizda birdan jonga kirs va buning ustiga gapirsa, go'dak quvonchining cheki bo'lmaydi.

Ikki personaj qatnashadigan eng oson suhbatlar va ko'rinishlardan boshlash maqsadga muvofiq. Asta-sekinlik bilan personajlar sonini oshirib va mavzuni murakkablashtirib borish lozim.

Shunday sodda o'yinlar yordamida bola odamlar orasidagi suhbat qanday shakllanishini bilib oladi.

Shunday ekan, maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bolalarning nutqini o'stirishga jiddiy e'tibor qaratish, mashg'ulotlarni sifatli tashkil etish, mashg'ulotlarda yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish, bolalarning erkin va ijodiy fikrlash qobiliyatini yuzaga chiqarishga harakat qilish lozim.

Bizning oldimizda turgan eng katta masalalardan bir esa, o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama kamol topgan shaxs sifatida tarbiyalanishi uchun qo'limizdan keladigan barcha ezgu ishlarni qilishdir, Zero, Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bilimli, salohiyatli, oqil va odil shaxslar qo'lida bo'lishi har doim muhim vazifa hisoblanib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-son. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2023-yil 11-sentabr, PF-158-son. <https://lex.uz/uz/docs/-6600413>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi PQ-3955-sonli [qarori](https://lex.uz/docs/-3923110). <https://lex.uz/docs/-3923110>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son [qarori](https://lex.uz/ru/docs/-4327235). <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>
5. Sh.M.Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.: "O'zbekiston", 2021-y.
6. Falsafa: qomusiy lug'at. Tuzuvchi va mas'ul muharrir Q.Nazarov. –T. "Sharq", 2004-y.
7. D.R.Babayeva. Nutq o'stirish nazariyasi va metodikasi. (Darslik). –T.: "Barkamol fayz mediya" nashriyoti, 2018-y.
8. S.Avezov, T.Choriyev. Til va nutq o'stirish metodikasi. (O'quv-uslubiy qo'llanma). – Buxoro. BuxDU, 2006-y.